



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING HUDUDIIY JOYLASHUVI VA IXTISOSLASHUVI

Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna

ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАЗМЕЩЕНИЕ И СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В УЗБЕКИСТАНЕ

Шамишева Рухсора Насировна

TERRITORIAL DISTRIBUTION AND SPECIALIZATION OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN

Shamsiyeva Rukhsora Nasirovna

Received: February 6, 2026 Revised: February 12, 2026 Accepted: February 17, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarining tashkil topish sabablari, ularning hududiy joylashuvi shakllanish bosqichlari va iqtisodiy ixtisoslashuvi tahlil qilinadi. Maqolada Erkin Iqtisodiy zonalarining yalpi ichki mahsulot va eksport salohiyatini oshirishdagi roli hamda hududiy klasterlarni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Erkin iqtisodiy zona, eksport, infratuzilma, investitsiya, texnopark, texnopolis, erkin omborxonalar, logistika, kommunikatsiya, erkin bojxona zonolari, evolutsiya, klaster.

Аннотация: В данной статье анализируются причины создания свободных экономических зон в Узбекистане, их территориальное размещение, этапы формирования и экономическая специализация. Освещается роль свободных экономических зон в увеличении валового внутреннего продукта и экспортного потенциала, а также их значение в развитии региональных кластеров.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, экспорт, инфраструктура, инвестиции, технопарк, технopolis, свободные склады, логистика, коммуникации, свободные таможенные зоны, эволюция, кластер.

Abstract: This article analyzes the reasons for the establishment of free economic zones in Uzbekistan, their territorial distribution, stages of formation, and economic specialization. The study highlights the role of free economic zones in increasing gross domestic product and export potential, as well as their significance in the development of regional clusters.

Keywords: Free economic zone, export, infrastructure, investment, technopark, technopolis, free warehouses, logistics, communication, free customs zones, evolution, cluster.

■ KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'ziga xos bo'lgan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi. Davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga doir bir qancha islohotlar ishlab chiqildi. Davlat islohotlarining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bu - iqtisodiyotning siyosatdan ustun turishidir.

O'zbekiston Respublikasi xalq ravnaqi, mamlakatning ertangi kunini o'ylab, iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish jahon davlatlariga har bir soha

bo'yicha raqobatbardosh davlat bo'lib tura olishi uchun mavjud imkoniyatlarini ishga soldi. Mamlakatda import o'rnini bosuvchi eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sanoatni rivojlantirish uchun investitsiyalarni ko'proq jalb qilish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilindi

Erkin iqtisodiy zonalar - yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab



chiqarishni rivojlantirish zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik - kommunikatsiya, yo'l transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud [6].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Erkin iqtisodiy hududlar O'zbekiston Respublikasi uchun yangilik bo'lmay balki ajdodlar an'anasi davomidir, binobarin tarixdan ham ma'lumki buyuk sarkarda Amir Temur davrida Samarqand yirik savdo markazi bo'lgan.

Mamlakatda hududida erkin iqtisodiy hududlarni barpo qilish to'g'risidagi qarashlar konsepsiyasi iqtisodchi olimlar tomonidan huquqiy va ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan har tomonlama batafsil yoritib berilgan.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Masalan A.F.Raximova Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida Erkin savdo hududini (keyingi o'rinlarda ESH) tashkil etish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligi, chunki bu rayon orqali Eron, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Rossiyaga boriladigan yo'llarni kesishganligi, tovarlar savdosini jadal rivojlantirishi mumkinligi haqida o'z fikrlarini bildirgan. Mamlakatdagi qolgan hududlarda Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilishda, shu hududlarning joylashgan o'ri, tabiiy sharoiti, foydali qazilmalar bilan ta'minlanganlik darajasi inobatga olinadi.

A.V. Vahobov tomonidan "Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar joriy etiladi" deb ta'riflagan [3].

Shuningdek H.R. Hamroyevning "Zonal siyosat" nomli monografiyasida erkin iqtisodiy hududlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi, faoliyati va jahon tajribasi haqida to'liq ma'lumot berilgan. Shuningdek O'zbekistonda ham o'zbek iqtisodchi olimlari B.M. Tursunov, E.R. Maxmudov, G.A. Melibayeva, A.A. Isajanov, T.S.Malikov, N.H. Haydarov, A.S. Jo'raev, Z. Yo'ldoshev, N.G. To'xliyev, B.D.Sadibekova, O.T. Alijanovlar tomonidan Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, rivojlanishi va jahon iqtisodiyotida tutgan o'ri kabi masalalar ilmiy adabiyotlarda yoritib borildi.

S. S. Mirzaliyeva EIZ - mamlakat hududining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy texnologik vazifalari hal etish maqsadida barpo etiladigan, maxsus ma'muriy boshqaruvga va xo'jalik yurutuvchi sub'yektlarni imtiyozli rejimga ega bo'lgan qismidir.

V. A. Uvarov EIZni tashkil qilishning iqtisodiy ma'nosini, hech kimga tegishli bo'lmagan bo'xona hududlarini tashkil etish, deb ko'rsatadi. Ushbu hududda xalqaro savdoning predmeti bo'lgan tovarlar, mamlakat hududiga haqiqatdan ham olib kirilishidan oldin omborxonalarda saqlanishi yoki keyinchalik qayta ishlanishi mumkin.

M. A. Raimjonova EIZ - mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma'muriy boshqaruvga ega

bo'lgan davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan hudud balki xo'jalik yurutuvchi sub'yektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar berilgan hudud.

Rossiyalik olimlardan D.Adrianov Erkin savdo hududlarini (keyingi o'rinlarda EIH) quyidagicha izohlaydi. "Erkin iqtisodiy hududlar milliy hududning bir qismi bo'lib, iqtisodiy muammolar echimini topishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Xorijiy hamda milliy tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyatida muhim qulayliklarni yaratadi" [1].

V. Papovning tadqiqotlariga ko'ra, "Erkin iqtisodiy zonalar shunday hududlarki, bu boshqa hududlardan alohida ajratilgan davlat tomonidan maxsus imtiyozlar va qulayliklar berilgan bu afzalliklar davlatning biror boshqa erida yoki iqtisodiy tarmog'ida kuzatilmaydi" deb ta'riflaydi [4].

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Avvalambor har bir davlatning rivojlanib ravnaq topishi va dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga turishi uchun, tabiiy sharoiti, iqtisodiy va siyosiy, tabiiy geografik o'ri, maydoni, mineral resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi muhim rol o'ynaydi. Qulay tabiiy sharoit ishlab chiqarish samaradorligini muhim omili hisoblansa, tabiiy boyliklar tabiiy sharoitdan farq qilib ishlab chiqarishga bevosita aloqador, ya'ni uning xomashyo va energetika bazasini tashkil qiladi. Tabiiy sharoitning qulayligi ayniqsa, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalar qazib chiqarish va transport harakatida yaqqol bilinadi. Davlatning iqtisodiy geografik o'ri, jahonning erkin iqtisodiy mintaqalari, jahon savdo yo'llari va tabiiy boyliklardan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy geografik o'rin imkoniyatlari davr o'tishi bilan o'zgarib boradi, bunga siyosiy voqealar, yirik tabiiy boyliklarning topilishi, zamonaviy texnologiyalar, transport vositalarining takomillashuvi sabab bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy davlatlar bilan erkin savdo va diplomatik aloqa o'rnatish huquqini qo'lga kiritdi. Tarixan qisqa vaqt mobaynida dunyoning bir qator mamlakatlarini bog'lovchi quruqlik va havo yo'llari ochilib O'zbekiston iqtisodiy geografik o'rnini yaxshilab oldi.

O'zbekiston Respublikasining "Bir makon bir yo'l", loyihasida ishtirok etishi sababli qadimiy Ipak yo'li ruhiyatini qayta tiklash, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatlarning transport infratuzilmasini birlashtirish, savdo aloqalarini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

O'zbekiston Respublikasida ham Erkin iqtisodiy zonalarini joriy qilish, ularni geografiyasini kengaytirish va rivojlantirishni huquqiy jihatdan kafolatlatlaydigan me'yoriy hujjatlarni qabul qilish va iqtisodiyotga qo'llash maqsadida bir qancha qonunlar joriy qilindi.

Belgilangan qonunlar bo'yicha ushbu zonalarini tashkil qilishdan maqsad Respublikaga imkon qadar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy muammolarni bartaraf etish, aholini turmush tarzini yaxshilash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish va



barqarorlashtirish, jahon talablariga mos keladigan raqobatbardosh eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun bugungi kunda erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilinmoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar transport tugunlarida, xalqaro aeroportlarda, port shaharlarda, sanoatlashgan shaharlarda, davlatlarning chegara hududlarida tashkil qilinadi. Erkin iqtisodiy zonalar qoloq hududlarni rivojlantirish maqsadida ham barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini har tomonlama chuqur fan doirasida o'rganish XX asrning 70 yillaridan boshlandi. Hozirda jahon davlatlarida Erkin iqtisodiy zonalar turlicha atamalar bilan nomalanadi. Masalan: "Erkin savdo hududi", "Erkin bojxona zonalar", "Maxsus iqtisodiy hudud", "Erkin omborxonalar", "Ilmiy texnika zonalar", "Texnoparklar", "Texnopolislar" deb ataladi.

Erkin iqtisodiy hududlar ham tomonlama davlat ichkarisida joylashgan bo'lib, shu mamlakatning tumanlari, viloyatlari bilan chegaradosh yoki o'ralgan bo'ladi. Erkin iqtisodiy zona sifatida ajratilgan hududlar faoliyatining yurgizishi uchun Respublikaning boshqa joylarida joriy qilinmagan imtiyozlar, soliq, moliya, bojxona, erkin valyuta konvertatsiyasi va huquqiy sharoitlar yaratiladi. Mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilishdan maqsad ko'plab xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, iqtisodiyotni tezkorlik bilan rivojlantirish va rivojlangan iqtisodiy makon yaratishdan iboratdir.

Erkin iqtisodiy zonalar qayerda faoliyat yuritishidan qat'iy nazar shu davlatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Erkin iqtisodiy hududlar mamlakatni jahon andozalari asosida jadal modernizatsiyalashgan usuli bo'lib, bozor transformatsiyasi bilan parallel ravishda jahon iqtisodiyotiga kirib borishini ta'minlaydi.

Mamlakatning kichik bir qismini egallagan Erkin iqtisodiy hududlarni anklav davlatlarning geografik joylashishiga qiyoslash mumkin. Anklav xarakterga ega bo'lgan mamlakatning kichik bir qismini tashkil qiladigan, Erkin iqtisodiy hududlar global ravishda mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish borasida butun mamlakatga nisbatan ustunlik qiladi, chunki yopiq iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga, markazlashgan rejali iqtisodiyotdan, bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich evolyutsion yo'l bilan o'tishda hududlar muhim tajriba bazasini o'taydi.

Chunki kichik teritoriyali hududlarni tartibga solish, salbiy muammoli vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilish oson bo'ladi.

Bugungi kunda Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilishda zamonaviy jahon amaliyotida ikki xil konseptual yondashuvlar mavjud bo'lib, tashkil etish usuliga qarab hududlar bir biridan farqlanadi:

1. Hududiy erkin iqtisodiy zonalar
2. Funktsional (nuqtali) erkin iqtisodiy zonalar

Hududiy erkin iqtisodiy hududlar – ajratilgan teritoriyali hududlarda, faoliyat yurituvchi barcha

rezidentlar xo'jalik yuritishning imtiyozli tartibidan foydalanadi.

. Iqtisodiy adabiyotlarda 30 dan ortiq erkin iqtisodiy hudud turlari bo'lib, ular quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- geografik joylanishi;
- konfiguratsiyasi;
- hudud maydoning kattaligi;
- ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va sifati;
- EIHning tabiiy, iqtisodiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari;
- davlat hududini tashkil etishda qo'ygan vazifalari;
- hududning ma'muriy – tashkiliy bo'linmaga tegishliligi va boshqalar [5].


Hozirda O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarining soni 20 dan ortiq bo'lib, sanoat zonalariga "Navoiy", "Angren" va "Jizzax" zonalar, farmaseftika zonalariga, "Zomin- farm", "Sirdaryo-farm", turistik zonalariga "Chorvoq" va "Amirsoy" kabi turistik zonalar xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan.

Jahon tajribalaridan ma'lumki Erkin iqtisodiy hududlarning tashkiliy - funktsional joylashish tizimi turli - tuman tuzilgan bo'ladi. Chunki ayrim Erkin iqtisodiy hududlar bir qancha hudud funksiyalarini o'zida birlashtira oladi. Shunday ekan ushbu hududlarning maqsadi bitta foyda olishga, mamlakatga ko'proq sarmoya kiritishga qaratilgan bo'ladi.

Erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari quyidagi to'lovlardan ozod qilinadi [2]: er solig'i, daromad solig'i, yuridik shaxslar mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb - hunar kollejlari, akademik - litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalardan; o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, xom - ashyo, material va butlovchi buyumlar, shuningdek O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yhatlar bo'yicha olib kelinadigan qurilish materiallari uchun bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvchi yig'imlaridan tashqari).

Ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar 3 yildan 10 yilgacha muddatni o'z ichiga olgan bo'lib, bunda kiritilgan sarmoyalar miqdori inobatga olinadi;

- ❖ 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 3 yil muddatga;
- ❖ 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar - 5 yil muddatga;
- ❖ 5 million AQSH dollaridan 10 AQSH million dollarigacha hajmdagi investitsiyalar-7 yil muddatga;



1-rasm. Erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish evolyutsiyasi¹

10 million va undan ko'p AQSH dollari hajmdagi investitsiyalar so'nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari qo'llangan holda -10 yil muddatga beriladi [7]. Quyida tasvirlangan 1 - rasmda EIHlarning rivojlanish bosqichlari davomida yuzaga kelgan yangi avlod shakllari haqida ma'lumot berilgan. Ma'lumotda dastlabki erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilinganidan to bugungi kungacha bo'lgan vaqt mo'yanida 4 ta avloddan iborat bo'lgan davrni o'z ichiga olishi bayon qilingan.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib dunyoning qaysi burchagida bo'lishidan qat'iy nazar Erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etish orqali, mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, modernizatsiyalash, iqtisodiyotni erkinlashtirish, import o'rini bosuvchi eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliy va xorijiy kapitalarni ko'proq jalb etish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratib, aholini yaxshi yashashini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shunday ekan O'zbekiston Respublikasi ham oldida turgan iqtisodiy muammolarni mardonovor engib, jahon mamlakatlari singari olg'a odimlamogda.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi / Шамсиева Рухсора Насировна, независимый исследователь Каршинского государственного университета / Shamsieva Rukhsora Nasirovna, independent researcher at Karshi State University
email: shamsiyeveruxsora190@gmail.com
ORCID: 0009-0004-9871-4710

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. В.Д. Андрианов Россия: экономический и инвестиционный потенциал. – М.: Экономика, 1999. – С. 467.
2. D.Y. Xujamkulov. Erkin iqtisodiy hududlar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2019. 335 b.
3. M.X. Voxidova. **Erkin iqtisodiy hududlar:** o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 40 b.
4. G'. G'. Nazarova, X.X. Xalilov va boshqalar. **Erkin iqtisodiy hududlar.** – T., 2011. – 17 b.
5. T. Farole, G. Akinci. **Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions.** – Washington, DC: The World Bank, 2011. – P. 27.
6. www.nfiez.uz/news.php?page=1#p1
7. <http://kun.uz/17422608>

¹ Muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz